Bilim
Innovatsiya
Barqaror rivojlanish

Noyabr
№ 11, 2026

AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON
JURNAL

Агробизнес, наука и технологии

Agribusiness, science and technology



№ 083688

ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform & workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR
Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.
Bosh muharrir o'rinbosarlari:
Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Farmonov To'lqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.
Muharrir:
Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.
Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:
Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)
Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)
Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)
Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))
Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)
Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)
Tahrir hay'ati:
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:
Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;
Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;
Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;
Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;
Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;
Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;
Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;
Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;
Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;
Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);
Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;
Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Javliyev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:
Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);
Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);
Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);
Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);
Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;
Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;
Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;
Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);
Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;
Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS
Toshkent davlat agrar universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR
Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Jurnalning telegram manzili:
t.me/agrobiznes_elektronjurnal
E-mail: licht-1989@mail.ru
Jurnalning rasmiy sayti:
https://www.agrobiznesjournal.uz
Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 271-sahifa.
2026-yil, №11. noyabr.

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLAR

MUXITDINOV SHOHIJAHON HUDOYOR O‘G‘LI
Barqaror cho‘l turizmi klasterlarini rejalashtirish va boshqarishning ko‘p mezonli modeli.....15
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, OYYARIQOVA SABRINA ZOHID QIZI, RUSTAMOVA ZEBINISO BEHZOD QIZI
Tashqi iqtisodiy faoliyatni asosiy mazmuni.....24
JUMAYEV AKBAR MAHMUDOVICH
Viza rejimini liberallashtirishning kiruvchi turizmga ta’sirini baholash: gravitatsiya modeli va mashinali o‘qitish uyg‘unligi.....33
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, YUSUPOV ALPOMISHBEK FAZLIDDIN O‘G‘LI, ZAFAROV OYBEK DILSHODOVICH
Tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy elementlari.....39
JUMAYEV AKBAR MAHMUDOVICH
O‘zbekistonda kiruvchi turizmning makroiqtisodiy ta’siri va uni dinamik panel model asosida prognozlash.....48
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, AZAMAT ABDULLAYEV AKBAR O‘G‘LI, XASANOV BEHRUZ MA’MURJON O‘G‘LI
Tashqi iqtisodiy faoliyatga berilgan imtiyozlar.....54
DJURAYEVA IRODA BAHROM QIZI
Raqamli to‘lovlarning yashirin iqtisodiyotni qisqartirishdagi institutsional roli.....62
GAYBULLA KUCHKAROV
Qashqadaryo viloyatida moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini baholash va hududiy tafovutlarni qisqartirish yo‘llari.....71
SAYDIRASULOV LAZIZ ALIMOVICH
Soliq imtiyozlarining fiskal samaradorligini baholash va soliq xarajatlarini optimallashtirish yo‘nalishlari.....79
SAIDAXMEDOV NEMAT XAMIDOVICH
Raqamli transformatsiya sharoitida hududiy klasterlarning innovatsion rivojlanish mexanizmlarini takomillashtirish.....92
AZIMJON MUSAMUXAMEDOV
A composite charity index for assessing philanthropic organisations under partial disclosure: preliminary evidence from Uzbekistan.....97
IMINOV ZAFARBEK
Andijon viloyatida bandlik tuzilmasi, norasmiy bandlik va yashirin ishsizlikning statistik tahlili.....110
RAIMJANOV DEMIR RAIMJANXOJI O‘G‘LI
Hududiy sanoatning eksport salohiyati omillarini ekonometrik baholash va prognozlash (Andijon viloyati misolida).....124

SANGIROVA UMIDA RAVSHANOVNA
Suv tejovchi innovatsion texnologiyalarni joriy etishning xorijiy tajribasi va uni O‘zbekiston sharoitiga tadbiq etish yo‘nalishlari.....136
SHUKUROV SOBIR MAMASOLIEVICH
Household financial vulnerability in Uzbekistan: debt burden, regional disparities and a stress test.....143
TURSUNOVA DILNAVOZ DAVRON QIZI
Oziq-ovqat sanoati tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi samaradorligini integral indeks asosida baholash.....151
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, SHUKUROVA LOLA, O‘ROLOVA KAMOLA
Eksport-import operatsiyalari hisobi va auditini takomillashtirish bo‘yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar.....161
MUROD KHASANOVICH ABULKASIMOV
Economic security challenges in Central Asia: trade integration, water resource risks and interstate cooperation.....166
ODILOVA SITORA SAYFITDIN QIZI
Meva-sabzavot mahsulotlari eksportini rivojlantirishda raqamli marketing vositalaridan foydalanish.....175
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, ABDUG‘ANIYEV ORIFJON, XO‘JANOV SHODMON ASROR O‘G‘LI
Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi korxonalar maxsulotlarni inventarizatsiya jarayoni o‘tkazish tartibi.....182
SAFAROV BEXZOD ISMATOVIÇ
Tadqiqotçilarni motivatsiyalaşning nazariy yondaşuvlari va xorij tajribasi.....192
TURDIYEVA NIGORA AHMED QIZI
Yashil turizmni rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning imkoniyatlari.....202
NUSRATILLOYEVA SHAHLO OLIM QIZI
Sun’iy intellekt sharoitida mehnat bozoridagi tarkibiy o‘zgarishlar: ijobiy va salbiy tendensiyalar tahlili.....210
DURUMOV TEMUR G‘OLIBOVICH
Sun’iy intellekt texnologiyalarini inson resurslarini boshqarish jarayonlariga joriy etish imkoniyatlari.....219
MAMADALIYEV ODILJON TOIROVICH
Hududlarni baholaş uçun yagona axborot bankini şakllantirişga doir yangiça yondaşuvlar.....227
UROQBOYEVA FARZUNA AXMADJONOVNA
Privatization of state assets through ipo: the uznif experience and its impact on Uzbekistan’s capital market.....237
ARZUOVA SHARGUL ANSATBAYEVNA, ABDIMURATOVA ALTINGUL KALBAEVNA
Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta’limda sun’iy intellektdan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....245

YUSUPOV ZULUNJON ZIYOYDINOVICH
Asosiy vositalardan foydalanish hisobini takomillashtirishning metodologik va uslubiy yo‘nalishlari.....252
DURUMOV TEMUR G‘OLIBOVICH
Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat resurslarini boshqarishning zamonaviy modellari.....263
JUMANIYOZOV FERUZBEK DILSHOD O‘G‘LI
Korxonalarning barqaror rivojlanishini ta’minlashda menejmentning roli.....271

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

KORXONALARNING BARQAROR RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDA MENEJMENTNING ROLI

JUMANIYOZOV FERUZBEK DILSHOD O'G'LI
Ma'mun universiteti Biznesni boshqarish kafedrasi v.b., dotsenti
E-mail: jumaniyozov_feruzbek@mamunedu.uz
ORCID: 0009-0002-5200-5340

Annotatsiya. Mazkur maqolada korxonalarning barqaror rivojlanishini ta'minlashda menejmentning o'rni tadqiq etilgan. Menejment funksiyalarini iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy maqsadlar bilan uyg'unlashtirish hamda yashil menejment vositalaridan foydalanish yo'nalishlari yoritilgan.
Kalit so'zlar: barqaror rivojlanish, menejment, yashil menejment, korxona, ekologik barqarorlik, yashil innovatsiya.

Аннотация. В статье исследуется роль менеджмента в обеспечении устойчивого развития предприятий. Рассматриваются направления интеграции функций менеджмента с экономическими, экологическими и социальными целями, а также применение инструментов зеленого менеджмента.
Ключевые слова: устойчивое развитие, менеджмент, зеленый менеджмент, предприятие, экологическая устойчивость, зеленые инновации.

Abstract. This article examines the role of management in ensuring sustainable enterprise development. It highlights the integration of management functions with economic, environmental and social objectives, as well as the application of green management tools.
Keywords: sustainable development, management, green management, enterprise, environmental sustainability, green innovation.

KIRISH

Bugungi kunda iqtisodiy muhitning tez o'zgarishi, tabiiy resurslardan foydalanish bosimining kuchayishi, ekologik muammolarning chuqurlashuvi hamda iste'molchilarning ijtimoiy va ekologik mas'uliyatli biznesga bo'lgan talabi korxonalar faoliyatini boshqarishga nisbatan an'anaviy yondashuvlarni qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Zamonaviy sharoitda korxonaning rivojlanishi faqat ishlab chiqarish hajmi yoki moliyaviy natijalarning o'sishi bilan emas, balki iqtisodiy samaradorlikni ijtimoiy mas'uliyat va atrof-muhitni muhofaza qilish bilan uyg'unlashtirish qobiliyati bilan ham belgilanmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish kun tartibida barqaror rivojlanishning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlari o'zaro bog'liq holda qaraladi hamda xususiy sektor barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishning muhim ishtirokchilaridan biri sifatida e'tirof etiladi [1].

O'zbekistonda korxonalarning barqaror rivojlanishini ta'minlash masalasi mamlakatning "yashil" iqtisodiyotga o'tish bo'yicha strategik yo'nalishlari bilan uzviy bog'liqdir. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son qarori bilan tasdiqlangan 2019–2030-yillarda "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasida iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida energiya samaradorligini oshirish, energiya resurslari iste'molini diversifikatsiya qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, tabiiy

resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda “yashil” iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlashning moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlarini rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan [2]. Mazkur vazifalarning korxona darajasida amalga oshirilishi, avvalo, boshqaruv qarorlarining mazmunini o‘zgartirishni, ya’ni resurslardan foydalanish samaradorligi, energiya tejamkorligi, ekologik xavflarni boshqarish, innovatsiyalarni joriy etish va xodimlarning barqaror rivojlanish jarayonidagi ishtirokini menejment tizimiga integratsiya qilishni talab etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Korxonalarning barqaror rivojlanishi masalasi xorijiy iqtisodchi va menejment olimlarining tadqiqotlarida ham keng o‘rganilgan. Jumladan, J.Elkington tomonidan ilgari surilgan “Triple Bottom Line” konsepsiyasida biznes faoliyati natijalarini faqat moliyaviy ko‘rsatkichlar asosida emas, balki iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik natijalar uyg‘unligi asosida baholash zarurligi asoslangan [3]. Ushbu yondashuv korxona menejmenti oldiga foydani maksimallashtirish bilan bir qatorda xodimlar, jamiyat va tabiiy muhit manfaatlarini ham hisobga olish vazifasini qo‘yadi.

S.L. Hart tomonidan ishlab chiqilgan natural-resource-based view of the firm yondashuvida esa korxonaning tabiiy muhit bilan munosabati uning uzoq muddatli raqobatbardoshligining muhim omili sifatida qaraladi. Olim korxonaning ekologik faoliyatini ifloslanishning oldini olish, mahsulot mas’uliyati va barqaror rivojlanish strategiyalari bilan bog‘laydi [4].

So‘nggi tadqiqotlarda barqaror rivojlanishning menejment bilan bog‘liqligi yanada kuchayib bormoqda. Xususan, muallif tomonidan oldingi tadqiqot ishlarida yashil iqtisodiyotning mintaqada shakllanishi uning korxonalar barqaror rivojlanishiga ta’siri va korxonada yangi ish o’rinlari yaratish, shuningdek chiqindilarni kamaytirish masalalari batafsil tadqiq qilingan[5,10,11]. V.A. Kunin esa tashkilot barqaror rivojlanishining iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa tarkibiy qismlarini o‘zaro muvofiqlashtirish mexanizmini tadqiq etib, barqarorlikni ta’minlashda tizimli boshqaruv yondashuvining ahamiyatini asoslaydi [6].

O‘zbekistonda ham korxonalarning barqaror rivojlanishi va yashil iqtisodiyot tamoyillarini boshqaruv jarayonlariga integratsiya qilish masalalari dolzarb ilmiy-amaliy yo‘nalishlardan biriga aylanmoqda. Xususan, M.T. Butaboyev, N. Maxmudov va A.A. Kasimov tomonidan tayyorlangan “Yashil iqtisodiyot” darsligida barqaror iqtisodiy rivojlanish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, yashil texnologiyalarga o‘tish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish masalalari yoritilgan [7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda korxonalarning barqaror rivojlanishini ta’minlashda menejmentning rolini aniqlash maqsadida tizimli, qiyosiy va tahliliy yondashuvlardan foydalanildi. Tizimli yondashuv asosida korxona barqaror

rivojlanishi iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy omillarning o‘zaro bog‘liq tizimi sifatida ko‘rib chiqildi. Qiyosiy tahlil orqali an’anaviy menejment va barqaror (yashil) menejment yondashuvlarining maqsadlari, boshqaruv funksiyalari va kutiladigan natijalari solishtirildi. Tadqiqotning mantiqiy ketma-ketligi “menejment funksiyalari → barqaror rivojlanish maqsadlari → yashil menejment vositalari → iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy natijalar” bog‘liqligi asosida shakllantirildi. Mazkur yondashuv asosida korxonalarning barqaror rivojlanishini ta’minlashda menejmentning asosiy ta’sir yo‘nalishlari aniqlanib, ularni amaliyotga joriy etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi.

TAHLILLAR VA ASOSIY NATIJALAR

Korxonaning barqaror rivojlanishini ta’minlashda menejmentning roli, avvalo, boshqaruv funksiyalarining mazmunini an’anaviy yondashuvdan barqaror rivojlanish talablariga moslashtirish orqali namoyon bo‘ladi. An’anaviy boshqaruvda asosiy e’tibor ishlab chiqarish hajmini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va foydani ko‘paytirishga qaratilgan bo‘lsa, barqaror menejmentda ushbu maqsadlarga ekologik va ijtimoiy omillar ham qo‘shiladi. Hartning tabiiy resurslarga asoslangan korxona konsepsiyasida korxonaning tabiiy muhit bilan munosabati strategik boshqaruv va uzoq muddatli raqobatbardoshlikning muhim omili sifatida qaraladi [8].

Shu nuqtayi nazardan, menejmentning rejalashtirish funksiyasi korxonaning uzoq muddatli iqtisodiy maqsadlarini ekologik va ijtimoiy maqsadlar bilan bog‘lashni nazarda tutadi. Masalan, korxona yangi ishlab chiqarish quvvatini yaratishni rejalashtirayotgan bo‘lsa, qaror faqat investitsiya qiymati va kutilayotgan foyda asosida emas, balki energiya sarfi, suvdan foydalanish, chiqindilar hajmi va xodimlar uchun yaratiladigan mehnat sharoitlari asosida ham baholanishi lozim. Tashkil etish funksiyasi esa belgilangan barqarorlik maqsadlarini amalga oshirish uchun tegishli mas’uliyat va vakolatlarni taqsimlashni talab etadi.

1-jadval

Menejment funksiyalarining korxona barqarorligiga ta’sir yo‘nalishlari

Menejment funksiyasi	An’anaviy yondashuv	Barqaror menejment yondashuvi	Kutiladigan natija
Rejalashtirish	Foyda va ishlab chiqarish hajmi	Iqtisodiy + ekologik + ijtimoiy maqsadlar	Uzoq muddatli barqarorlik
Tashkil etish	Vazifalarni taqsimlash	Barqarorlik bo‘yicha mas’uliyatni taqsimlash	Resurslardan samarali foydalanish
Motivatsiya	Ish haqi va bonus	Natijaga asoslangan va ekologik rag‘batlantirish	Xodimlarning ishtiroki
Nazorat	Moliyaviy natijalar	Moliyaviy + ekologik + ijtimoiy KPI	Kompleks monitoring
Qaror qabul qilish	Qisqa muddatli iqtisodiy samara	Uzoq muddatli umumiy samaradorlik	Barqaror raqobatbardoshlik

Manba: muallif ishlanmasi.

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

1-jadvaldan ko‘rinadiki, menejment funksiyalarining o‘zi o‘zgarmaydi, balki ularning mazmuni va baholash mezonlari kengayadi. Demak, korxonada barqaror rivojlanishning ta’minlanishi alohida ekologik bo‘lim tashkil etish bilangina emas, balki barqarorlik tamoyillarini rejalashtirish, tashkil etish, motivatsiya va nazoratning barcha bosqichlariga integratsiya qilish bilan bog‘liq.

Korxonaning barqaror rivojlanishida alohida e’tibor iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy maqsadlarning o‘zaro muvofiqligiga qaratilishi lozim. Elkington tomonidan ilgari surilgan Triple Bottom Line konsepsiyasi korxona faoliyati natijalarini faqat moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan cheklamasdan, insonlar va atrof-muhit bilan bog‘liq natijalarni ham hisobga olish zarurligini asoslaydi [9].

Korxona menejmenti uchun ushbu yondashuvni quyidagicha ifodalash mumkin: iqtisodiy natija korxonaning moliyaviy barqarorligini, ekologik natija tabiiy resurslardan foydalanish va atrof-muhitga ta’sirini, ijtimoiy natija esa xodimlar va jamiyat manfaatlarini aks ettiradi. Mazkur uch yo‘nalishning birgalikda boshqarilishi korxonaning qisqa muddatli foyda bilan uzoq muddatli barqarorlik o‘rtasidagi muvozanatini ta’minlash imkonini beradi.



Manba: muallif ishlanmasi.

1-rasm. Korxona barqaror rivojlanishining uchlik menejment modeli

Bunda menejerning vazifasi uch yo‘nalishdan birini ikkinchisidan ustun qo‘yish emas, balki ular o‘rtasidagi iqtisodiy bog‘liqlikni hisobga olgan holda qaror qabul qilishdan iborat. Masalan, energiya tejamkor texnologiyani joriy etish dastlab qo‘shimcha investitsiyani talab qilishi mumkin. Biroq uzoq muddatda energiya xarajatlarining kamayishi korxonaning iqtisodiy samaradorligini oshiradi, resurs sarfining kamayishi ekologik natijani yaxshilaydi, yangi

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

texnologiyalarni boshqarish esa xodimlarning malakasini oshirish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu sababli bitta boshqaruv qarori bir vaqtning o‘zida uchta barqarorlik komponentiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Korxonaning barqaror rivojlanishini ta’minlashda yashil menejmentni korxona umumiy boshqaruv tizimiga integratsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda ekologik yo‘nalish korxonaning faqat atrof-muhitni muhofaza qilish faoliyati sifatida emas, balki strategik boshqaruv qarorlarining tarkibiy qismi sifatida qaralishi lozim. Ayniqsa, energiya va suv resurslaridan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, qayta ishlash, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda ekologik innovatsiyalarni joriy etish menejmentning amaliy vositalari sifatida namoyon bo‘ladi.

Bu jarayonda muhim jihat shundaki, yashil menejmentning natijasi faqat ekologik ko‘rsatkichlarning yaxshilanishi bilan o‘lchanmasligi kerak. Masalan, energiya sarfining kamayishi bir vaqtning o‘zida ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirishi mumkin; chiqindilarni qayta ishlash yangi ikkilamchi xomashyo manbasini yaratishi mumkin; ekologik innovatsiyalar esa yangi mahsulot yoki xizmatlarni yaratish orqali korxonaning bozor imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin.

2-jadval

Yashil menejment vositalarining korxona faoliyatiga ta’siri

Yashil menejment vositasi	Boshqaruv harakati	Iqtisodiy ta’sir	Ekologik ta’sir
Energiya menejmenti	Energiya sarfini monitoring qilish	Xarajatlar kamayadi	Emissiya kamayadi
Suv menejmenti	Suv sarfini optimallashtirish	Resurs xarajati kamayadi	Suv resurslari saqlanadi
Chiqindilar menejmenti	Saralash va qayta ishlash	Ikkilamchi resurslardan daromad	Chiqindi hajmi kamayadi
Yashil innovatsiya	Resurs tejamkor texnologiya	Unumdorlik oshadi	Ekologik yuklama kamayadi
Yashil xarid	Ekologik mezonlar asosida yetkazib beruvchi tanlash	Uzoq muddatli samaradorlik	Ta’minot zanjiri ta’siri kamayadi

Manba: muallif ishlanmasi.

Demak, yashil menejmentni korxonada joriy etishning asosiy xususiyati “ekologik xarajat”ni “strategik investitsiya” sifatida ko‘rish imkoniyatidir. Bunda rahbariyat yashil texnologiya yoki ekologik tadbirga sarflangan mablag‘ni faqat joriy xarajat sifatida emas, balki kelgusidagi resurs tejamkorligi, risklarning kamayishi va raqobatbardoshlikning oshishiga xizmat qiluvchi boshqaruv qarori sifatida baholashi zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, korxonalarning barqaror rivojlanishini ta’minlashda menejmentning roli an’anaviy boshqaruv vazifalaridan kengayib, iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy maqsadlarni o‘zaro uyg‘unlashtirishni talab etmoqda. Rejalashtirish, tashkil etish, motivatsiya, nazorat va qaror qabul qilish

jarayonlariga barqaror rivojlanish tamoyillarini integratsiya qilish korxonaning uzoq muddatli raqobatbardoshligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, yashil menejment vositalari orqali energiya va suv resurslaridan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, ekologik innovatsiyalarni joriy etish hamda xodimlarning barqaror rivojlanish jarayonidagi ishtirokini kuchaytirish korxona faoliyatining barqarorligini mustahkamlaydi.

Shundan kelib chiqib, korxonalarda barqaror rivojlanishni ta'minlashning boshqaruv mexanizmini "rejalashtirish – tashkil etish – amalga oshirish – nazorat – takomillashtirish" uzluksiz sikli asosida shakllantirish taklif etiladi. Mazkur yondashuvda boshqaruv qarorlari nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki ularning ekologik va ijtimoiy natijalari nuqtayi nazaridan ham baholanishi lozim. Bunday integrallashgan menejment yondashuvi korxonalarning resurslardan oqilona foydalanishi, ekologik xavflarni kamaytirishi, xodimlar manfaatlarini hisobga olishi va uzoq muddatli barqaror rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. United Nations. Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development. New York: United Nations, 2015.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son qarori. 2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida. LexUZ — PQ-4477-son qaror

3. Elkington J. Cannibals with Forks: The Triple Bottom Line of 21st Century Business. Oxford: Capstone Publishing, 1997.

4. Hart S.L. A Natural-Resource-Based View of the Firm // *Academy of Management Review*. 1995. Vol. 20, No. 4. P. 986–1014. DOI: 10.5465/AMR.1995.9512280033.

5. Jumaniyozov, F. (2024). Yashil iqtisodiyot. Молодые ученые, 2(29), 115-117.

6. Кунин В.А. Механизм гармонизации составляющих устойчивого развития организации // Научный журнал НИУ ИТМО. Серия «Экономика и экологический менеджмент». 2025. № 1. С. 49–59. DOI: 10.17586/2310-1172-2025-18-1-49-59.

7. Butaboyev M.T., Maxmudov N., Kasimov A.A. *Yashil iqtisodiyot*. Toshkent: Tahririy nashriyot TDIU, 2025.

8. Hart S.L. A Natural-Resource-Based View of the Firm // *Academy of Management Review*. 1995. Vol. 20, No. 4. P. 986–1014. DOI: 10.5465/AMR.1995.9512280033.

9. Jumaniyozov, F. (2024). Opportunities to create new jobs in the context of the transition to a 'green'economy. University Research Base, 264-267.

10. J. F. D. (2024). Yashil iqtisodiyotga o 'tishda chiqindilarni boshqarish va ulardan samarali foydalanish masalalari. Central Asian Journal of Education and Innovation, 3(10), 115-121.

2026-yil, noyabr. №11-son.

Mas’ul muharrir: Beglayev Uchqun
Musahhih: Boltayev Nurali
Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas’ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
Telefon raqami: +998939018320, +998934393000
Jurnal rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko‘chasi, 2-uy**